

## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



### 2019 yilning yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


RAQAMLAR	
2539,8 mlrd.so'm Sanoat ishlab chiqarish hajmi	112,3 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
1467,9 mlrd.so'm Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	121,7 % o'sish sur'ati
57,8 % Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	27,7 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2539,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 112,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 5,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 12,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 15,8 % ni, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash – 14,4 % ga tashkil qildi.

### 2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



## 2018 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,01 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0004 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2407,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,8% ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 40,8%, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 26,5%, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,6 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 40,8 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 26,5 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 17,6 %

**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


<b>Mahsulot turlari</b>		<b>2019 yil yanvar-aprel</b>	<b>2018 yil yanvar-aprel</b>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		65,6	68,9
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,0	48,3
Engil avtomobillar		14209	9552
Yuk avtomobilari – dona		2665	2214
Aroq – ming litr		328	500
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		9,4	7,0
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr		350,0	430,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		26279,5	24774,9
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		2019 yil yanvar-aprel	2018 yil yanvar-aprel
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		547,4	516,6
Milliy non (yopgan non) – tonna		184,5	44,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		7577,8	9928,6
Xo'jaliksovuni – tonna		3219,0	3853,5
Paxta tolasi –tonna		33968,4	41707,0
Paxta chigititonna		53263,4	64567,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 3,3 mln kVtsga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 80 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Paxta tolasi 7738,6 tonnaga;
5. Paxta chigiti 11303,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 116,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6% ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 114,4% ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6% ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 74,5%, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 24,8% ni tashkil etdi.




## 2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 44,8 foiz, Urganch shahri 20,4 foiz, Xonqa 7,8 foiz, Shovot 5,7 foiz, Bog'ot 5,4 foiz va Gurlan tumani 3,6 foizni va eng past bo'lgan Urganch tumani 2,1 foiz, Xiva tumani 1,5 foiz hamda 1,0 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




**2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-aprel</i>	<i>2018 yil yanvar-aprel</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>2539,8</b>	<b>1716,8</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,01</b>	<b>0,01</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,01	0,01
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>2407,6</b>	<b>1631,6</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	388,8	305,2
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	58,0	49,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	674,2	459,0
Kiyim ishlab chiqarish	10,3	16,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3,1	2,1
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	1,5	1,1
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	4,9	4,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	0,2
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,02	0,01
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	5,4	2,7
Asosiy farmasevtika	3,2	2,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	8,1	6,6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	58,1	47,4
Metallurgiya sanoati	7,1	4,0
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	35,5	32,7
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,003	0,003
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	6,7	6,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	58,0	43,2


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-aprel</i>	<i>2018 yil yanvar-aprel</i>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1037,3	603,9
Mebel ishlab chiqarish	6,4	5,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	34,7	34,5
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	6,3	4,5
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>116,7</b>	<b>72,4</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>15,4</b>	<b>12,9</b>

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-aprel oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.**




## Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-aprel oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,2 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-aprel oylarida bu ko'rsatkich 43,6 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,2 foizdan 4,5 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 51,1 foizdan 46,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 3,2 mlrd.so'mlik (*2018 yil yanvar-aprel oylarida 2,2 mlrd.so'm*), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1107,3 mlrd.so'mlik (*656,2 mlrd.so'm*), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 115,2 mlrd.so'mlik (*95,1 mlrd.so'm*), quyi texnologiyali tarmoqda 1181,9 mlrd.so'mlik (*878,1 mlrd.so'm*) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### **2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**




**2018 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 1381,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 110,4 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-aprel oylarida Xazorasp tumani 2837,9 ming so'mdan 2019 yil yanvar-aprel oylarida 4661,3 ming so'mga, Urganch shahri 2913,8 ming so'mdan 3647,5 ming so'mga, Xonqa tumani 786,2 ming so'mdan 1081,3 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**2019 yil yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)**




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 1467,9 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 121,7 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 327,8 mlrd.so'mni va 1140,0 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 103,1 foiz va 128,3 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 57,8 foizni (*2018 yil yanvar-aprel oylarida 70,3 foiz*) tashkil qildi.


### **2019 yil yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)**



### **2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)**



**2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga  
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 798,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 119,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-aprel oylarida Xazorasp tumani 2881,2 ming so'mdan 2019 yil yanvar-aprel oylarida 3793,7 ming so'mga, Urganch shahri 1636,0 ming so'mdan 1642,8 ming so'mga, Urganch tumani 226,4 ming so'mdan 248,4 ming so'mga, Bo'got tumani 196,0 ming so'mdan 216,5 ming so'mga oshgani kuzatildi.